



IMOM AL-MOTURIDIY YODGORLIK MAJMUASI: TARIX, ME'MORCHILIK VA E'TIQOD TUTASHGAN MASKAN

*Samarqand davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar fakulteti tarix
yo'nalishi talabasi **Raximova Difuza Qodirjon qizi***

draximova919@gmail.com

Annotasiya: Ushbu makolada Samarqand shahridagi Imom Abu Mansur al-Moturidiy maqbarasining tarixiy ahamiyati, me'moriy uslubi va islom madaniyati rivojida o'rni tahlil qilinadi. Moturidiylik ta'limotining asoschisi xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan ushbu yodgorlik majmuasining qayta tiklanish tarixi va uning bugungi kundagi ziyorat turizmidagi mavqeyi yoritib berilgan. Maqola Movarounnahr me'morchilik an'analari hamda allomaning ma'naviy merosiga qiziquvchi tadqiqotchilar va keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: Imom al-Moturidiy, Moturidiy maqbarasi, Samarqand, Chokardiza qabristoni, Movarounnahr me'morchiligi, islom me'morchiligi, ziyorat turizmi, ma'naviy meros, Sharq renessansi.

Kirish:

Imom Moturidiy yodgorlik majmuasi Samarqand shahrining ko'hna qismida joylashgan. Bir necha yuzlab ulug' allamalar, sayyidlar, shayxlar, imomlar va g'oziyarlar dafn etilgan Chokardiza qabristoni islom olamida

Madinadagi Baqi va Makkadagi Muallo qabristonlaridan keyingi sharaflilik uchun o'rinda turadi.

Chokardiza guzari, so'ngra qabriston joylashgan maydonda IX–XII asrlarda Samarqand shahrining rabodi joylashgan bo'lib, uning g'arbiy qismida hashamdor bog'lar, ko'shklar barpo qilingan. Chokardiza nomi "chokar" – soqchi, "diza" – qal'a so'zlarining birikmasidan paydo bo'lib, sug'diycha "sardorlar qarorgohi, qal'asi" degan ma'noni anglatadi. Ilk o'rta asrlarda bu yerda shaharni qo'riqlashga mo'ljallangan harbiy istehkom qurilgan.¹



Asosiy qism

Samarqand tarixi bir muncha yoritilgan "Qandiya" va "Samariya" kitoblarida yozilishicha, bu yerda alloma Abu Ishoq ibn Ibrohim Samarqandiy topshi bo'lgan. Alloma vafot etgach, o'z vasiyatiga binoan uni ushbu tepaning eng baland joyiga dafn etganlar.

944-yili Shayx Abu Mansur al-Moturidiy Samarqandda vafot etgach, uni ham ushbu bo'gga dafn etganlar. Shu tariqa bu yerda yangi qabriston shakllana boshlagan. Chokardiza qabristoniga ayniqsa XI–XII asrlarda juda ko'plab ulug' allomalar dafn etilganligi tarixiy manbalarda ham qayd etilgandir.

1998-yilning dekabr oyida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130-yilligini nishonlash to'g'risida"gi qaroriga imzo chekdilar. Shundan so'ng Prezidentimizning shaxsiy tashabbusi va bevosita ko'rsatmalari bilan Chokardiza qabristonida Imom al-Moturidiy qabri ustida me'morial majmua qurilishi boshlandi. Muqaddas Chokardiza qabristoni 1948-yildan boshlab buzilganligi va uning ustida hovli-joylar qurilganligi uchun

1 Ibodat Sattorova Samarqand -2021 “Samarqand shahri va viloyatidagi muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar tarixi “

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti olimlariga Chokardiza qabristonini ilmiy jihatdan o'rganish va Imom al-Moturidiy qabrini aniqlash vazifasi topshirildi.

Arxeologlar to'rt oy mobaynida Chokardiza qabristoni o'rnida tadqiqotlar olib borib, bu qabristonning umuiy maydoni va qatlamlarini aniqlashga muvaffaq bo'ldilar.

Tadqiqotlar natijasida Chokardiza qabristonining umumiy maydoni 4,5 ga ekanligi, bu yerda qabrlar ayrim joylarda 5-6 qavatga yetishi aniqlandi. Shuningdek, XIV–XV asrlarda Sohibqiron Amir Temur tomonidan sayyidlar uchun qurdirilgan maqbara, Imom al-Moturidiyning qabri yonida barpo qilingan masjidning poydevori; Imom al-Moturidiy al-Ansoriylarning qabrlari aniqlanib o'rganildi.2



2 Shuhrat Qulmatov , Amiriddin Berdimuhamedov “Samarqand yodgorliklari” Toshkent -2017-yil

Qazishmalar paytida hali shaxsiyatlari fanga noma'lum bo'lgan 30 dan ortiq allomalarning qabrlari ustiga qo'yilgan qabrtoshlar ham topildi. Chokardiza qabristoni ustiga qurilgan bir necha hovli-joylar ko'chirilib, Imom al-Moturidiyga hashamatli maqbara bunyod qilindi. Maqbara ichiga Imom al-Moturidiyga bag'ishlab marmar qabrtosh o'rnatildi. Ushbu toshning ustiga: "Inson vafot etgach barcha amallari to'xtaydi, magaram uch amali davom etadi: birinchisi, sadaqai jariyalar, ikkinchisi qoldirgan ilm-amallari va uchinchisi ortidan qolgan solih farzandlari" – degan hadis yozilgandir. Maqbaraning naqshinkor eshiklariga ham yozuvlar bitilgan bo'lib, uning janubiy va shimoliy eshiklariga bir xilda: "Fuqarolarga jannat eshiklari ochiqdir. Marhumlarga Allohning rahmatlari nozil bo'ladi" – degan yozuv bitilgandir.

Maqbaraning sharqiy eshigini ikkita tabaqasiga ikki xil yozuv bitilgan. 1-tabaqaga: "Allohning huzuriga qaytadigan kundan qo'rqinglar", 2-tabaqaga esa: "Ey Parvardigor bizlarga rahmat eshiklarini ochgin" – degan yozuvlar bitilgandir.³

Ushbu mo'jaz maqbarada o'zbek me'morchiligining bir necha ming yillik boqiy an'analari o'z ifodasini topgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

2000-yilning 17-noyabrida Prezidentimiz Islom Karimov yangi majmuani tantanali ochdi.

Xulosa:

Chokardiza qabristoni va uning bag'ridagi Imom al-Moturidiy yodgorlik majmuasi nafaqat Samarqandning me'moriy durdonasi, balki butun Islom olami uchun ulkan ma'naviy va ilmiy qiymatga ega muqaddas qadamjodir. Asrlar davomida yuzlab buyuk allomalar so'nggi manzillarini topgan ushbu maskan,

3 Shuhrat Qulmatov , Amiriddin Berdimuhamedov “Samarqand yodgorliklari” Toshkent -2017-yil o'tmishdagi mudhish yillarda ma'lum darajada qarovsiz qolib, vayron bo'lgan bo'lsa-da, Mustaqillik sharofati bilan qayta tiklandi.



O'tkazilgan keng ko'lamli arxeologik tadqiqotlar va xalqaro miqyosdagi e'tirof natijasida Imom al-Moturidiy xotirasiga munosib majmua qad rostladi. Bu majmua va undagi naqshinkor yozuvlar milliy me'morchilik an'alarimizning poydorligini, ma'rifatparvar ajdodlarimizga bo'lgan yuksak ehtiromimizni va ziyorat turizmining muhim maskanlaridan biri sifatida milliy merosimizning ajralmas qismini aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Shuhrat Qulmatov , Amiriddin Berdimuhamedov "Samarqand yodgorliklari" Toshkent -2017-yil
- 2.Ibodat Sattorova Samarqand -2021 "Samarqand shahri va viloyatidagi muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar tarixi "